

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI KREATIV
FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASI**

Xalilov Farxod Furqat o‘g‘li
“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGIKA”
“Pedagogika” kafedrası (PhD) katta o‘qituvchisi
G‘offora Gullola Mamatisaqovna
Asaka tuman 43-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ fikrlashga o‘rgatish metodikasi haqida fikr yoritilgan.

Abstract: This article discusses the methodology of teaching creative thinking to future elementary school teachers.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика обучения творческому мышлению будущих учителей начальной школы.

Kalit so‘zlar: kreativlik, fikrlash, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘z-o‘ziga ishonch, shakllantirish, qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikrlash, strategiya.

Key words: creativity, thinking, knowledge, skills, competence, self-confidence, formation, support, independent thinking, strategy.

Ключевые слова: креативность, мышление, знания, умения, компетентность, уверенность в себе, формирование, поддержка, самостоятельное мышление, стратегия.

Ta’limda o‘quvchilarning kreativligidan foydalanish ularga bilimlarni o‘zlashtirish va ijodiy tasavvurni rivojlantirishda katta yordam beradi. Kreativlikka o‘rgatish nafaqat mumkin bo‘lgan holat, balki zaruriyatdir. R.Stenberg oltita maxsus o‘zar bir-biri bilan aloqador manbalarga tayangan holda ijodiy faollikni rivojlantirishga doir kreativlik nazariyasini ishlab chiqqan:

1. Qobiliyatlar: sintetik (yangicha olamda muammolarni ko‘ra olish va odatdagi fikrlashdan qochish ko‘nikmasi); analitik (g‘oyalarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmasi); amaliy-kontekstual (abstrakt g‘oyalarni amaliyotda qo‘llay olish yo‘llarini izlab topish ko‘nikmasi).

2. Bilim. R.Stenbergning fikricha, bilimlar va kreativlik orasida U-obrazli munosabat mavjud. Uning ta’kidlashicha, bilim fikrlashning moslashuvchilanligini chegaralashi mumkin. Bu fikrni u olimlar misolida xulosalashga harakat qilgan, ya’ni ular etarlicha bilimlarga zahirasiga ega bo‘lmasdan, o‘z faoliyatining dastlabki yillarida ilmga salmoqli hissa qo‘shadi. Olimning xulosalarini A.Eynshteyning “Xayolot bilimdan muhimdir”, degan fikri ham tasdiqlashi mumkin.

3. Fikrlash. R.Stenberg fikrlash usullarini tahlil etish orqali ijodkorlik uchun tabiat qonunlariga xos uslub muhim degan xulosaga keladi: “fikrlar harakatining shaxsiy qonunlari yaratiladi”.

4. Shaxsiy sifat. Deyarli barcha olimlar ijodiy jarayon uchun shaxsiy sifatlarning muhimligini ta’kidlab o‘tishgan. Ijodiy jarayonga xos shaxsiy sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: turli ko‘ngilsizliklarni bartaraf etish, intellektual riskka tayyorlik, mavhumlikka sabr qilish va o‘z-o‘ziga ishonch.

5. Motivatsiya. Empirik kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, kishilar o‘zi yoqtirgan yo‘nalishda haqiqiy ijodiy ish yaratishi mumkin. Chunki ular o‘zlari yoqtirgan ishni berilib bajarishadiki, hatto rag‘bat haqida ham o‘ylab o‘tirishmaydi.

6. Atrof-muhit. Albatta, qulay muhitsiz kreativlik yorqin namoyon bo‘lmaydi. Chunki kreativlik komponentlari kompensatsiyaga ehtiyoj sezadi. Agar ijodiy jarayonga motivatsiya yaxshi bo‘lmasa, muhit uning o‘rnini to‘ldirishi mumkin[59].

Shuningdek, xorijiy olimlarning fikricha, boshlang‘ich ta’limda “kreativlikning 12 ta strategiyasi” ham muhim o‘rin tutadi:

1. Taqlid uchun namuna ko‘rsatish (kimki kreativlikka o‘rganmoqchi bo‘lsa, o‘zida uning manbaini izlab topishi kerak).

2. Umume’tirof etilgan qoidalarga munosabat nuqtai-nazaridan yuzaga keladigan shubhalanishlarni qo‘llab-quvvatlash (har bir kishini shubhalanishga arziydigan narsa va vaziyatlarni tan olishga o‘rgatish).

3. Xato qilish huquqi (xato qilishdan qo‘rqish tasodiflarga tayyormaslikka, mustaqil fikrlay olmaslikka olib keladi).

4. Intellektual riskni rag‘batlash (ijodkor shaxslar tavakkal qila olishlari kerak, chunki ular boshqalar bosib o‘tmagan yo‘ldan borishadi).

5. O‘qitish jarayonini o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish imkoniyatini beradigan usullarda tashkil etish. O‘quv topshiriqlarni taqdim etishda “tasavvur qiling...”, “nimani taklif qilar edingiz...”, “...ni tasvirlang”, “o‘z taxminingizni bayon eting” tarzidagi jummalarga tayanish yaxshi samara beradi.

6. Muammoni izlab topish, shakllantirish va qayta aniqlashtirish ko‘nikmasini rag‘batlash (tanlov qilish ko‘nikmasi – bu egallash lozim bo‘lgan malaka).

7. Ijodiy g‘oyalar va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlash va mukofotlash (o‘quvchilar hamma vaqt o‘qituvchining ularning ijodiy faoliyati natijalarini qadrlashiga alohida ehtiyoj sezishadi).

8. Ijodiy fikrlash uchun vaqt ajratish (ijod vaqt va o‘ylash uchun vaqtni talab etadigan jarayon).

9. Mavhumlik va tushunarsizlikka chiqdamlilikni rag‘batlash (vaqt tig‘izligi va noaniqlik davrida “toqat qilmaslik” natijasida yuzaga keluvchi g‘oyalar vaqtinchalik va nomaqbuldir).

10. Ijodkor shaxsni yo‘lida uchraydigan turli ko‘ngilsizliklarga tayyorlash (ijodkorlik – bu nafaqat ijodiy fikr yuritish, balki ortga chekinmaslikdir).

11. Davom ettirish istagini rag‘batlash (o‘quvchilarda “ijodkorlikda chegara yo‘q” tarzidagi g‘oyani tarkib toptirish).

12. Ijodkor shaxs va muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni izlab topish (o‘quvchilarni ularning ijodiy iste’dodi rag‘bat topishi uchun shunday sharoitni yo izlab topishi, yoki yaratishiga tayyorlash kerak).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda R.Stenbergni boshqa mualliflarning fikrlarga qo‘shilgan holda haqli ravishda ijod psixologiyasining otasi deb hiisoblash mumkin. U taklif etgan analitik, sintetik va amaliy iqtidorlilik, divergentlikni o‘z ichiga qamrab olgan investitsion nazariyada yangicha olam bilan muammolar, boshqalar e’tibor qaratmaydigan jihatlarni ko‘ra olish, alohida holatlardan kelib chiqib yaxlitlikni hosil qilish bilan bog‘liq sintetik iqtidorlilik muhim o‘rin tutadi.

A.Maslou va K.Rojerslarning asarlarida kreativlikning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq quyidagi mezonlar aniqlashtirilgan: muammoni his qilish; umumlashtirish,

o‘xshashlikni sezish va farqlarni tushunishga qobiliyatlilik; divergent fikrlash, fikrlash sur’atining yuqoriligi.

Amerikalik tadqiqotchilar (J.Gilford) yuksak kreativ va yuqori intellektga ega bolalarni farqlash uchun shaxsning kreativ salohiyatini aniqlash va ochishga doir testlar tizimini ishlab chiqqan. Ular tomonidan yuqori intellektga ega bolalar standart yutuqlar, kattalar va o‘qituvchilar tomonidan belgilangan meyorlarga tenglasha oladi, yuksak kreativlikka ega bolalar umumqabul qilinganlaridan farqli ravishda alohida muvaffaqiyatlarni ko‘zlaydi. Bunday bolalar odatda “yonib turishadi”, ichki isyonkorlik bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqot natijasida o‘qituvchilar yuqori umumiy intellekt va kreativlik past darajada rivojlangan bolalarni o‘qitishni afzal deb bilishadi. Kreativ salohiyatga ega o‘quvchilar uchun xayolotga berilish va hazil-mutoyiba hissi yuqori bo‘ladi. Bunday o‘quvchilarga esa, o‘qituvchilar hamma vaqt ham ijobiy munosabatda bo‘lishmaydi. Bizning tadqiqotimiz uchun ham J.Gilford tomonidan fanga kiritilgan “divergent tafakkur” atamasi alohida ahamiyat kasb etadi. U divergent tafakkurning fikrlashning tezligi, organalligi, moslashuvchanligi va aniqligi hamda tasavvur kabi parametrlarini aniqlashtirgan.

Ye.Torrens tomonidan bolalarning kreativligini o‘lchashning ixtirochilikka doir ijodiy fikrlash hamda “Holat va harakatdagi ijodiy qobiliyatlar” testi yaratilgan. Ular fanda “Torrens testlari” deb nomlangan bo‘lib, 5 yosh va undan katta bolalar bilan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

“Iqtidorli bolalar” deb nomlangan monografiyada kreativlikka xos quyidagi jihatlar yoritib berilgan: 1) ishtiyoq, qiziquvchanlik, ishga sho‘ng‘ib ketish; 2) yuqori ruhiy quvvat darajasini namoyon qilish; 3) mustaqillik; 4) o‘yinlar, materiallar va g‘oyalardan foydalanishda ixtirochilik; 5) ko‘pincha aniq bir vaziyatga doir turfa xil fikrlarni bayon etish; 6) muammoga turli xil yo‘llar bilan yondashish, mavjud imkoniyatlardan foydalanish (moslashuvchanlik) qobiliyati; 7) original g‘oyalarni izlab topish qobiliyati.

Shuningdek, kreativlikning shakllanganligini baholashda B.Lukasning modeliga asoslanish mumkin. Unda kreativlikning ayrim tarkibiy qismlari alohida ajratib ko‘rsatilgan (6-rasmga qarang).

1.Qiziquvchanlik (topshiriqni bajarishga kuchli ishtiyoq):

✓ atrof-olamga qiziqish (topshiriq tavsifi) va olam haqida ko‘proq ma’lumot olish istagi (topshiriqning turli jihatlari; tasavvurlarni aytib berish);

✓ o‘z savoliga mustaqil javob izlash. Yangi ma’lumotlarni turli manbalardan ham faol izlash.



Kreativlikning shakllanganligini baholash bo‘yicha B.Lukas modeli

1. G‘oyalarni ishlab chiqish.

Bunda ikki jihat farqlanadi:

- ✓ taklif etilgan g‘oyalarning originalligi;
- ✓ moslashuvchanlik va harakatchanlik, turli tuman g‘oyalarni ishlab chiqish

qobiliyati.

3. Taklif etilgan g‘oyalarni rivojlantirish.

✓ taklif etilgan g‘oyalarni takomillashtirish va yoki rad etish maqsadida ularning kuchli va kuchsiz tomonini o‘rgangan holda turli nuqtai nazardan baholash;

✓ tadqiqot ob’ekti to‘g‘risida yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi bilan sharoitga mos o‘z faoliyatini tezda qayta o‘zgartirish qobiliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Компетенции «4К»: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации / авт.-сост. М.А. Пинская, А.М. Михайлова. – М.: Корпорация «Российский учебник», 2019. [Электронный ресурс]: URL: <https://vbudushee.ru/library/>

2. Навыки XXI века в российской школе: взгляд педагогов и родителей / М.С. Добрякова, О.В.Юрченко, Е.Г.Новикова; Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. – М.: НИУ ВШЭ, 2018. URL: <http://ioe.hse.ru/sovaobr>

3. Намаконов И. Креативность. 31 способ заставить мозг работать. – М.: Альпина Паблишер, 2020 – 264 с.

4. Nuraliyeva K.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ salohiyatni takomillashtirish texnologiyasi: uslubiy qo‘llanma. – Namangan: Yashin sanoat, 2022. – 120 b.